

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**MAXAMADALIYEVA ZUXRA BAXROM QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SON KOMPONENTLI  
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Махамдалиева Зухра Бахром қизи**

Ingliz va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi..... 3

**Махамдалиева Зухра Бахром кизи**

Лингвокультурологическое исследование фразеологических единиц с числовым компонентом в английском и узбекском языках..... 25

**Makhamadaliyeva Zuxra Bakhrom kizi**

Linguacultural research of phraseological units with number component in English and Uzbek ..... 51

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 56

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**MAXAMADALIYEVA ZUXRA BAXROM QIZI**

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA SON KOMPONENTLI  
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TADQIQI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Fil2113 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**O'sarov Ibrohimjon Ko'rpashevich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Mamatov Abdi Eshonqulovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Saidakbarova Saodat Parxadjanovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "25" oktabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahar, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24. faks: (+99871) 246-02-24; e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). (O'zbekiston Milliy universiteti, 7-qavat, 78-xona).

Dissertatsiya bilan Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2024-yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.A.Siddikova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

**Sh.O.Nazirova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.n., dotsent

**S.E.Kamilova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida son tushunchasining leksik-semantik birliklarini grammatik va stilistik jihatdan asoslash hamda lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, sonlarni etnik-madaniy, ruhiy xususiyatlarini aks ettirish nuqtayi nazaridan o'rganish nafaqat tilshunoslar tomonidan, balki psixologlar, etnograflar, madaniyatshunoslar, tarixchilar, matematiklar va faylasuflarning doim diqqat markazida bo'lib kelgan. Tilda so'zlardan tashqari ba'zan so'zga o'xshash son komponentlarning mavjudligi tilshunoslikda ushbu hodisani alohida asoslashga xizmat qiladi hamda son komponentli frazeologik birliklarni o'rganish, tizimlashtirish nutqni yanada aniq va ifodali qiladi.

Dunyo tilshunosligining hozirgi tadqiq obyekti sifatida tilning madaniyat rivojidadagi o'rnini, jamiyatning ijtimoiylashuvidagi ahamiyati, insonning ruhiy ongidadagi real jarayonlar oqimini belgilashdagi o'ziga xosligi, shuningdek, tilni tizim sifatida o'rganishdan tashqari, unga antropotsentrik yondashuv talabining oshib borishi, muayyan millatga xos madaniy belgilarni jamiyat kishilari ongida muhurlangan ko'rinishining tilda aks etishi xususiyatlari va muammolarini o'rganish, hal etish kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatshunoslik kabi yo'nalishlar zimmasiga tushmoqda. Sababi, til – inson tafakkuri tizimi va ruhiyati tabiatning kaliti sanaladi, u millat xususiyatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi. Frazeologiyani murakkab tarmog'i frazeologik birliklarni tarjima qilish bo'lib, bu hodisani tadqiq qilish sohasi katta tajriba talab qiladi.

Mamlakatimizda chet tillar ta'limiga e'tibor siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarda turli tillarning qiyosiy tadqiqini ilmiy asoslash, qardosh bo'lmagan tillarning o'xshash va noo'xshash xususiyatlarini ochib berish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. "Aholi orasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o'zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o'qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta'limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish" kabi vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 11-sentyabrdagi PQ-300-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi<sup>1</sup> qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/3546742/> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2018 йил 2 февралдаги ПФ-5325-сонли "Хотин-кизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустахкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони.

hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ilmiy tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** So‘nggi yillarda lisoniy birliklarni o‘rganishga lingvomadaniy yondashuv bir qator xorijiy tilshunos olimlar, xususan, N.F.Alefrenko, N.D.Arutyunova, A.P.Babushkin, N.N.Boldirev, A.Vejbitskaya, S.G.Vorkachyov, V.V.Vorobyov, V.I.Karasik, O.A.Kornilov, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, S.G.Ter-Minasova<sup>2</sup> kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbek olimlaridan til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligiga oid masalalarni D.U.Ashurova, O‘.K.Yusupov, T.A.Bushuy, Sh.S.Safarov, A.E.Mamatov, M.R.Galiyeva, N.M.Maxmudov, D.S.Xudayberganova<sup>3</sup>lar o‘z ilmiy ishlarida o‘rganib chiqqanlar. Lingvomadaniy til birliklarining katta guruhi hisoblangan frazeologizmlarning milliy hamda o‘ziga xos jihatlarini ikki va undan ortiq, turli tizimli tillar kesimida chog‘ishtirib o‘rganishga talab oshib bormoqda. Frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritishda N.F.Alefrenko, A.Vejbitskaya, A.M.Bushuy, V.A.Maslova, N.N.Amasova, A.V.Kunin, V.N.Teliya<sup>4</sup> va o‘zbek olimlaridan Sh.Rahmatullayev, A.E.Mamatov,

---

<sup>2</sup> Алефиренко Н.Ф. Протовербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // Филол. науки, 2002. – № 5. – С. 72-81.; Вежбицкая А. Язык, культура и познание. – М.: Русские словари, 1996. – С. 416.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. – М.: Языки русской культуры, 1999. I-XV. – С. 896.; Вежбицкая А. Язык, культура и познание. – М.: Русские словари, 1996. – С. 416.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – № 1. – С. 64-72.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М., 1997. – С. 32.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004. – С. 390.; Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. 2-е изд., испр. и доп. – М.: ЧеРо, 2003. – С. 394.; Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка: Когнитивные исследования. Ин-т. языкознания РАН. – М.: Знак, 2012. – С. 208.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. 2-е изд., стереотип. – М.: Издательский центр Академия, 2004. – С. 208.; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация (Учеб.пособие). – М.: Слово/Slovo, 2000. – С. 271.

<sup>3</sup> Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. – Тошкент, 2004. – № 4. – Б. 37-40.; Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // International scientific review, 2019. – № LVI.; Галиева М.Р. Религиозное сознание в языковой картине мира // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – № 5.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов тавлудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжумани материаллари). – Андижон, 2012. – Б. 78.; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. – № 5. – Б. 10.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд: Сангзор, 2006. – Б. 92.

<sup>4</sup> Алефиренко Н.Ф. Протовербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // Филол. науки, 2002. – № 5. – С. 72-81.; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – М., 1963. – С. 198; Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Москва, 2005. – С. 313.; Телия В.Н. Культурно-национальные коннотации фразеологизмов (от мировидения к миропониманию) // Славянское языкознание. XI Международный съезд славистов. – М.: Наука, 1993. – С. 314.

M.I.Umarxodjayeв, Sh.S.Imyaminova, G.S.Kurbonova, N.B.Otaqulov,<sup>5</sup> ingliz olimlaridan A.P.Kouvi, M.Omaziu, K.Steyer, S.Xanston<sup>6</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlari katta ahamiyatga ega.

Tanlangan dissertatsiya mavzusi doirasida xorijiy olimlardan D.L.Rafisov M.A.Pshibayeva, T.B.Pasechniklarning son komponentli frazeologik birliklarning qiyosiy-chog‘ishtirma tadqiqot ishlarini keltirish mumkin. O‘zbek tadqiqotchilaridan A.S.Shokirov, N.B.Otaqulov ishlari ham aynan shu mavzuga bag‘ishlangandir.

Son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari turli tillar kesimida qiyosiy o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lsada, biroq ingliz va o‘zbek tillari frazeologizmlari asosida ligvomadaniy tahlil orqali izlanishlar ilk marotaba amalga oshirilmoqda.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejalari muvofiq “Turli tizimdagi tillarning lisoniy va tipologik xususiyatlari” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sonning tildagi tabiati va lingvistik xususiyatlarini tavsiflash;

ingliz va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarning morfologik hamda semantik xususiyatlarini aniqlash;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi frazeologik birliklarda raqamlarning ramziy ma’nosini ko‘rib chiqish va madaniy kodlarni ajratish;

ingliz hamda o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning ma’no va shakl birligini hamda milliy-madaniy o‘ziga xosligini chog‘ishtirma tahlil etish orqali ochib berish.

**Tadqiqotning obykti** sifatida ingliz va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklar tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** ingliz va o‘zbek tillari son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

---

<sup>5</sup> Бушуй Т.А. Контрастивная лексикография в уровневой интерпретации фразеологии исходного языка. Автореферат диссертации ... доктора филологических наук. – Ташкент, 2000. – С. 43.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фраземаларининг шаклланиш масалалари. Фил.ф. докт. дис. автореф. – Тошкент, 1999. – С. 56.; Умарходжаев М.И. Основы фразеологии: Автореф. дис. д-ра филол. наук. – М., 1981. – С. 56.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – Б. 408.; Имянинова Ш.С. Немис тили фразеологияси (ўқув кўлланма). – Т.: MUMTOZ SO‘Z, 2011. – Б. 80; Отақулов Н.Б. Дунё халқлари маданиятида нумеративларнинг рамзий маъноси // УрДУ, Илм сарчашмалари. – Урганч, 2018. – № 7. – Б. 22-28.; Курбанова Г.С. Француз ва ўзбек тилларида ономастик компонентли фразеологизмларнинг миллий-лисоний хусусиятлари: Филол.бўйича фалсафа докт. дисс... автореф. – Т., 2019. – Б. 32.

<sup>6</sup> Cowie A.P. Phraseology. Theory, Analysis, and Applications. Oxford Studies in Lexicography and Lexicology. – Oxford: Oxford University Press, 1998.; Omaziu M. Patterns of phraseological unit’s modifications. Häcki Buhofer, Annelies, Harald Burger, eds. Phraseology in Motion II. – Baltmannsweiler: Schneider, 2007.; Steyer K. Corpus linguistic exploration of modern proverb use and proverb patterns. Computational and corpus-based phraseology: Recent advances and interdisciplinary approaches, Proceedings of the Conference Volume II. – London, UK, Geneva: Editions Tradulex, 2017. – P. 45-52.; Hunston S. Corpora and language teaching: issues of language. Cambridge University Press. – Cambridge, 2010. – P. 137-169.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada chog'ishtirma, etimologik, komponent tahlil, kross-madaniy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

Chog'ishtirilayotgan tillardagi son komponentli frazeologik birliklar morfologik va leksik jihatdan har ikkala tilda aniqlovchi, ega, kesim vazifasida qo'llanilishi, tartib sonli iboralar sifat va ravish vazifasida kelishi kabi o'xshash va ingliz tilidagi aniq va noaniq artikl olgan bir qator son komponentli frazeologik birliklar mavjud bo'lsa, o'zbek tilida artikl tushunchasi mavjud emasligi, bir soni ingliz tilida ko'p hollarda iboralar tarkibida, o'zbek tilida esa maqollarda qo'llanilishi kabi farqli jihatlar asoslangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarni tahlil qilish natijasida, ikkala tilda ham bir soni frazeologik birliklar tarkibida ko'p qo'llanilishi va ular aynan ushbu xalqning madaniyati, urf-odatlarini o'zida aks ettirishi, ikki, uch, besh sonlari yaxshilik va yomonlik, birlik va hamjihatlik, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik ma'nolarini ifodalaganligi, yetti soni esa ingliz va o'zbek tillarida muqaddas va mo'jizaviy son hisoblanishi, va ular ingliz va o'zbek xalqning turmush tarzi, e'tiqodlari, milliy-madaniy ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi kabi izomorfik xususiyatlari aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarida somatik, zoomorfik, makon va zamon, oziq-ovqat, diniy, predmet va ma'naviy madaniy kodlar aniqlanib ularning konsepsiyasi hamda verbalizatsiyasi aniq etnik xususiyatga ega ekanligi, olamning lisoniy manzarasini va muayyan etnik guruhning qadriyatlar tizimini tushunish va taqdim etish imkonini berishi dalillangan;

chog'ishtirilayotgan tillaridagi son komponentli frazeologik birliklar ingliz va o'zbek madaniyatida jamoaviylik, qarindoshlik, muvaffaqiyat, qaror qabul qilish singari bir qator mavzuiy guruhlar har ikkala tilga xos madaniy qadriyatlar hisoblanishini, ayollarning sabr-toqatliligi, oila muqaddasligi, qo'ni-qo'shnilar hamjihatliliigi kabi faqat o'zbek madaniyatiga xos, pulni tejash va mehnatsevarlik kabi ingliz madaniyatiga xos xususiyatlar isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:**

ingliz va o'zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari ochib berilgan;

chog'ishtirilayotgan tillarda son komponentli frazeologik birliklarda raqamlarning ramziy ma'nosi ko'rib chiqilgan va madaniy kodlarga ajratilgan;

son komponentli frazeologik birliklarning ingliz va o'zbek tillarida izomorfik, allomorfik hamda o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan;

son komponentli frazeologik birliklar tahlili natijasida chog'ishtirilayotgan tillarning birida ularni muqobillari mavjudligi yoki mavjud emasligi aniqlangan va dalillangan.

**Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Muammoning aniq va asosli shakllantirilishi, qo'llanilayotgan tadqiqot usullarining adekvatligi, tahlil qilingan materiallar hajmining yetarliligi, nazariy ma'lumotlar ishonchli va mavjud manbalardan, jumladan, dissertatsiyalar, avtoreferatlar, frazeologik lug'atlardan olinganligi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, muammoning chog'ishtirma, etimologik, komponent tahlil, kross - madaniy kabi tahlil usullaridan asosida



foydalangani, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani, erishilgan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy tilshunoslikning keng ko‘lamda rivojlanib borayotgan antropotsentrik paradigmasi doirasida shakllangan g‘oyalarni tizimli tillarda son komponentli frazeologizmlarda lingvomadaniy xususiyatlari tadqiqiga tatbiq qilish imkoniyatida namoyon bo‘ladi, shuningdek, olingan natijalar kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, tarjimashunoslik kabi fanlardan ilmiy tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lishi bilan bir qatorda, aksiologik tilshunoslik yo‘nalishi nazariy rivojiga asos bo‘lishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ilmiy ishdan olingan natijalar “Lingvomadaniyatshunoslik”, “Leksikologiya”, “Umumiy tilshunoslik”, “Tarjimashunoslik”, “Madaniyatlararo muloqot”, “Mamlakatshunoslik”, “Qiyosiy tipologiya” kabi fanlar bo‘yicha o‘quv qo‘llanma va darsliklar, ikki tilli lug‘atlar, ma‘ruza matnlarini yaratishda ingliz va o‘zbek tillari misolida keltirilgan ma‘lumotlardan foydalanish mumkinligi bilan xarakterlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Ingliz va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy tadqiqi mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

ingliz va o‘zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklar morfologik va leksik jihatdan har ikkala tilda aniqlovchi, ega, kesim vazifasida qo‘llanilishi, tartib sonli iboralar sifat va ravish vazifasida kelishi kabi o‘xshash va ingliz tilidagi aniq va noaniq artikl olgan bir qator son komponentli frazeologik birliklar mavjud bo‘lsa, o‘zbek tilida artikl tushunchasi mavjud emasligi, bir soni ingliz tilida ko‘p hollarda iboralar tarkibida, o‘zbek tilida esa maqollarda qo‘llanilishi kabi farqli jihatlari ifodalashiga oid xulosalardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2020-2021-yillarga mo‘ljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 24-maydagi 1304/30.02.01-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, innovatsion tadqiqot loyihasi asosida o‘qituvchilarning lingvistik va kommunikativlik qobiliyatini oshirish, chog‘ishtirma tilshunoslik va stilistika sohalaridagi bilimini oshirish hamda ta‘lim tizimi jarayonini mustahkamlash va xalqarolashtirish maqsadida yaratilgan uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqishda yangi yondashuvlar sifatida mazkur tadqiqot ishidagi tahlil natijalarini ochib berishda qo‘llanilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillardagi son komponentli frazeologik birliklarni tahlil qilish natijasida, ikkala tilda ham bir soni frazeologik birliklar tarkibida ko‘p qo‘llanilishi va ular aynan ushbu xalqning madaniyati, urf-odatlarini o‘zida aks ettirishi, ikki, uch, besh sonlari yaxshilik va yomonlik, birlik va hamjihatlik, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik ma‘nolarini ifodalaganligi, yetti soni esa ingliz va o‘zbek tillarida muqaddas va mo‘jizaviy son hisoblanishi va ular ingliz va o‘zbek xalqning turmush tarzi, e‘tiqodlari, milliy-madaniy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liqligi kabi izomorfik xususiyatlariga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2020-2021-yillarga

mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillari institutining 2023-yil 22-fevraldagi 1307/30.02.01-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan tavsiyalar institutning o'quv jarayoni va xalqaro loyihalarini amalda oshirishda ko'maklashgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarida somatik, zoomorfik, makon va zamon, oziq-ovqat, diniy, predmet va ma'naviy madaniy kodlar aniqlanib ularning konsepsiyasi va verbalizatsiyasi aniq etnik xususiyatga ega ekanligi, olamning lisoniy manzarasini va muayyan etnik guruhning qadriyatlar tizimini tushunish va taqdim etish imkonini berishiga hamda, son komponentli frazeologik birliklar ingliz va o'zbek madaniyatida jamoaviylik, qarindoshlik, muvaffaqiyat, qaror qabul qilish singari bir qator mavzuiy guruhlari har ikkala tilga xos madaniy qadriyatlar hisoblanishini, ayollarning sabr-toqatliligi, oila muqaddasligi, qo'ni-qo'shnilar hamjihatligi kabi faqat o'zbek madaniyatiga xos, pulni tejash va mehnatsevarlik kabi ingliz madaniyatiga xos xususiyatlarga oid xulosalardan va tahlillardan "O'zbekiston" teleradiokanali DUK muharririyati tomonidan tayyorlangan "Adabiy jarayon" va "Ta'lim va taraqqiyot" nomli radio eshittirishda (2023 yil 05-iyundagi 02-36-892-sonli ma'lumotnomasi) foydalanilgan. Natijada, ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning izomorfik (o'xshashligi), allomorfik (farq qiluvchi) va unikal (o'ziga xos noyob) xususiyatlari borasidagi bahs-munozaralarga oydinlik kiritilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish nashr qilingan. Shulardan, 5 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, 2 ta impakt faktorli xorijiy jurnallarda, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqiyosidagi ilmiy anjuman materiallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat bo'lib, umumiy 142 sahifani tashkil qiladi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Olamning lisoniy manzarasida frazeologik birliklarning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tilshunoslikda frazeologik birliklar talqiniga ilmiy-nazariy yondashuv o‘rganilgan, olamning lisoniy frazeologik manzarasi va son komponentli frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlangan hamda munosabat bildirilgan.

Hozirgi kunda tilshunoslikning ajralmas qismi sifatida rivojlanayotgan va keng ko‘lamda tadqiq etilayotgan frazeologiya dunyo tilshunoslarining diqqat markazida bo‘lishiga qaramay, frazeologik birliklarning nazariy masalalari, mezon va belgilari shu bilan bir qatorda ularning turli tillardagi izomorfik, allomorfik jihatlari, tarjima muammolari bahsli munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Frazeologizmlarni til hodisasi sifatida e‘tirof etib, uni turli aspektlarda tadqiq etish ishlarini xorijlik olimlar boshlab berishdi va uni rivojlantirishdi. Frazeologik birliklarning yagona, qat‘iy ta‘rifi mavjud emas va olimlarning bu boradagi ta‘riflari turlicha bo‘lib, quyida biz ba‘zi ta‘riflarni keltiramiz.

A.G.Nazaryan: “Frazeologik birlik – bu qisman va to‘liq ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan turg‘un so‘z birikmalaridan iborat bo‘lib, frazeologizmlar turg‘unlik darajasining semantik belgisi, ularning morfologik hamda sintaktik tuzilishida namoyon bo‘ladi”<sup>7</sup>, B.A.Larin: “Frazeologik birliklarning asosiy belgisi uni tashkil qiluvchi so‘z komponentlarining ma‘nosidan, uning umumiy ma‘nosining kelib chiqmaganligida”<sup>8</sup>, N.N.Amosova: “Frazeologik birlik – matn”<sup>9</sup>, S.G.Gavrin: “Frazeologik birlik – funkcionol-semantik uyg‘unlik mezonlari”<sup>10</sup> ekanini ta‘kidlaydilar.

A.A.Reformatskiy: “Frazeologik birliklarning xususiyati ular tarkibidagi komponentlarni boshqa tillarga so‘zma-so‘z tarjima qilib bo‘lmasligida”<sup>11</sup> deydi. Yuqoridagi ta‘riflardan ko‘rinib turibdiki, frazeologizmlarga tilshunos olimlar turlicha ta‘rif berishgan va ushbu ta‘riflar sirasini yana uzoq davom ettirish mumkin.

O‘zbek tilshunosligida ham frazeologiya doirasida olib borilgan lingvistik izlanishlar salmoqli xarakterga ega. O‘zbek tilshunosligida ilk bor frazeologiyaniing til normasi va nutq madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarini tadqiq etgan olim A.E.Mamatov frazeologizmga quyidagicha ta‘rif beradi: Frazeologiyani “keng” va “tor” ma‘noda tushunish noto‘g‘ri, uni bitta ma‘noda tushunish kerak. Ular qanday til birliklari deb klassifikatsiya qilinishidan qat‘i nazar aforizm, maqol yoki matal, turg‘un so‘zlashuv formulalar, “qanotli so‘zlar”mi, xullas, agar ular frazeologizmning biz bergan ta‘rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya‘ni tuzilishi jihatdan so‘z birikmasiga yoki gapga teng bo‘lgan, obrazli, umumlashgan ma‘no anglatadigan, leksik elementlari qisman yoki to‘liq ko‘chma ma‘noga ega bo‘lgan, lug‘atlarda qayd etilgan har qanday turg‘un leksik-semantik birliklar frazeologik birliklar doirasiga kiritilishi shart<sup>12</sup>.

<sup>7</sup> Назарян А.Г. Фразаология современного французского языка. – М.: Высшая школа, 1987. – С. 288.

<sup>8</sup> Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. Уч. зап. ЛГУ. Серия филол. наук. – Л., 1956. – № 24. – С. 202.

<sup>9</sup> Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. – Л.: ЛГУ, 1963. – С. 208.

<sup>10</sup> Гаврин С.Г. Фразаология современного русского языка. – Пермь, 1971. – С. 45.

<sup>11</sup> Реформатский А.А. Введение в языкознание. – М.: Аспект Пресс, 1999. – С. 536.

<sup>12</sup> Маматов А. Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – Б. 212.

Son komponentli frazeologik birliklar ingliz va o'zbek tillarida juda ko'p uchraydi. Quyidagilarni bunga misol qilib olishimiz mumkin: 1) Ingliz tilidagi son komponentli frazeologik birliklar: *One man's fault is another man's lesson* (Bir kishining xatosi boshqasining darsidir); *One person's loss is another's gain* (Kimdir yo'qotadi, kimdir topadi); 2) O'zbek tilidagi son komponentli frazeologik birliklar: *Bir yoqadan bosh chiqarmoq*, *Bir jon – bir tan bo'lmoq – hamjihat, yakdil bo'lmoq*.

Ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarni chog'ishtirib o'rganish shuni ko'rsatadiki, tilshunoslikda sonning o'rnini nafaqat lingvistik omillar belgilaydi, balki ular ko'p ma'noliligi bilan ekstralingvistik omillarga ham bog'liq, ya'ni madaniy an'analar, turmush tarzi, urf-odatlar, shuningdek, turli xil hodisalar va faktlar. Ushbu frazeologik birliklarining leksik va semantik xususiyatlarini o'rganish turli xalqlarning tarixi hamda o'ziga xosligini o'rganishda katta ahamiyatga ega. Masalan: ing. *Seventh heaven* – baxt yoki xursandchilik ma'nolarini bildiradi. Ingliz madaniy an'analari va diniy qarashlarida yetti raqami mukammallikni hamda samoga doir mo'jizalarni ifodalaydi; o'zb. *Bir qizga yetti mahalla ota-ona*, bizga ma'lumki, mahalla bu o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan leksema hisoblanib, o'zbek madaniyatida qo'ni-qo'shnilar qarindoshday yaqin aloqada ekanligini bildiradi.

Frazeologik birliklarning bir bo'lagi hisoblangan maqollar tarkibida ham son komponenti juda ko'p qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarda son komponentini qo'llanilishi ushbu tillardagi milliy-madaniy o'ziga xoslikni ularning rang-barangligini, shuningdek, chog'ishtirilayotgan tillarning madaniy jihatdan o'ziga xosligini aniqlashga imkon beradi. Masalan: ing. *A penny saved is a penny earned* – ushbu maqol pulni tejash, uni topish qimmatli hamda mashaqqatli ekanligini ifodalaydi. Madaniy jihatdan esa ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar orasida tejamkorlik oqilona moliyaviy boshqaruvning muhimligini ta'kidlaydi; o'zb. *Bir boshqoq don*, *Bir savat don* – ushbu maqolni boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilganimizda asl ma'no kelib chiqmaydi, boisi ushbu maqol o'zbek xalqining dehqonchilik va hosildorlik bilan bog'liq qadriyatlarini aks ettiradi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, son komponentli frazeologik birliklar, jumladan, maqol va matallar ikki xalqning milliy dunyoqarashi, madaniyati, hayotiy tushunchalari va madaniyatlararo muloqotini chuqurroq anglashda xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “**Son komponentli frazeologik birliklarning sintaktik va semantik tahlili**” deb nomlangan ikkinchi bobi sonning tildagi tabiati va o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini o'rganishga, ularning morfologik va leksik xususiyatlarini aniqlashga hamda ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarni semantik jihatdan tahlilga tortishga bag'ishlangan.

Son yordamida reallikni tasvirlash mumkin, u turli madaniyatlarda dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, son tushunchasi til va tafakkurdagi eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi.

V.A.Maslova raqamlar dunyo tasvirlangan maxsus kodning elementlari, deb hisoblaydi: ular musiqa, she'riyat, arxitektura va umuman san'atning asosini

tashkil qiladi<sup>13</sup>. Raqamlar tilshunoslikning asosiy diqqat markazida bo‘lib, tilshunoslikda ularning kelib chiqishi, semantikasi, tuzilishi va raqamlarning tildagi vazifalari o‘rganiladi. Raqamlar miqdorni ifodalashning asosiy vositasi bo‘lib, ular yordamida narsa va hodisalar sanaladi. Insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida sanoq sistemasining asosi sifatida 2, 3, 4, 12, 60 va boshqa raqamlar olingan. Shunisi qiziqki, ko‘plab xalqlar uchun “qirq” soni uzoq vaqtlar davomida hisoblashning yakuniy chegarasi va noaniq katta son hisoblanib kelingan.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida raqam va son tushunchalariga quyidagicha ta’riflar berilgan: Raqam – (arabcha – son, miqdor; sana; nomer): 1) Sonni ifodalovchi grafik belgi. Bu raqamlar har qanday balandparvoz gaplardan qudratli va rad qilib bo‘lmas faktlardir (S.Ahmad. Ufq); 2) Biror son bilan ifodalangan miqdor, ko‘rsatkich. 3. Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qo‘yilgan son; nomer. Tartib raqami.

Son – 1) mat. Narsalarning qanchaligini, sanog‘ini, adadini hisoblash uchun xizmat qiladigan vosita; matematik tushuncha. Butun sonlar. Kasr sonlar. Sonlar nisbati. Sonlar nazariyasi. Son tushunchasining rivojlanishiga o‘rta asr matematiklari ham hissa qo‘shdilar<sup>14</sup>.

Ingliz va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarda ifodalangan miqdor tushunchasi sonning leksik-semantik xususiyatini ifodalaydi. Xususan, son fikr obyektlarining miqdoriy xususiyatlarini ifodalovchi grammatik kategoriya bo‘lib, aynan miqdor fikrini ifodalash vositalari til tuzilishining barcha darajalariga, frazeologiyaga ham kirib boradi. Masalan, har ikkala til doirasida one/bir miqdor soni leksik semantik xususiyatini quyidagicha izohlash mumkin: Ingliz tilida “one”, *the one and only* paremiyasida “one” miqdor soni yakkayu-yagona degan ma’noni anglatib kelgan. “Bir” miqdor soni turli xil so‘z turkumlari vazifasida qo‘llanilishi mumkin: sifat (bir qator, bir xil obyektlar, hodisalarni hisoblashda ikkinchisidan oldin, ya’ni ketma-ket keluvchi raqamlarning birinchisi), ravish (birinchidan, avvalo), ot (ma’lum bir turkumning yoki oy, haftaning boshi).

*Be at one (with somebody)* be in agreement (Fikri bir joydan chiqmoq).

*All bread is not baked in one oven* – people are not alike (Hamma ham bir xil emas, o‘zbek tilidagi ekvivalenti “*Besh qo‘l barobar emas*”).

O‘zbek tilining izohli lug‘atida bir soni haqida quyidagicha keltirilgan bo‘lib, “bir” soni va shu son bilan ifodalangan eng kichik son, miqdor. *Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi; Yetti qiz bir onaning bolasiday ahil turishardi* [S.Zunnunova, Ko‘k chiroqlar]; “Bir” soni hisob, miqdor, o‘lcham, chama ma’nolarini anglatuvchi so‘zlar bilan kelib, predmetlarning miqdori, o‘lchamini anglatadi. *Bir juft. Bir metr. Bir hafta.* “Bir” soni ba’zi otlardan oldin kelib, noaniqlik tushunchasini ifodalaydi va “*qandaydir*”, “*allaqanday*”, *allaqaysi* kabi ma’nolarni bildirib keladi, Sizni *bir* odam so‘rab kelgan edi; “Bir” soni fe’llar oldidan kelib, fe’ldan anglashiluvchi ish-harakatning bir marta bajarilishi yoki yuz berishini ifodalaydi: *Odam dunyoga bir keladi. Yetti o‘lchab, bir kes*<sup>15</sup>.

<sup>13</sup> Маслова В.А. Культурно-национальная специфика русской фразеологии // Культурные слои во фразеологизмах и дискурсивных практиках. – М.: Языки славянской культуры, 2004. – С. 69-77.

<sup>14</sup> Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2009. – Б. 478.

<sup>15</sup> Izoh.uz – O‘zbek tilining izohli lug‘ati, 2014-2024.

Son komponentli frazeologik birliklarni ingliz va o‘zbek tillarida semantik jihatdan o‘rganish, ularning o‘xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash tadqiqotimizning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir xalqning ma’naviy ongida raqamlar semantikasini yuzaga chiqaruvchi, uning milliy-madaniy ko‘rsatkichlarini ifodalovchi turli tushunchalar ko‘plab uchraydi. Milliy madaniyatda raqamlar bilan ifodalangan madaniy kodlar o‘ziga xos xususiyat kasb etadi. Ma’lumki, sonlar ikkiga bo‘linadi: Sanoq va tartib sonlar. Dastavval, sanoq son haqida to‘xtalib o‘tamiz.

1) Tahlilimizni sanoq boshi hisoblangan one (bir) sonidan boshlaymiz.

Ingliz tilida bir soni yagona, bittayu bitta, birov degan ma’nolarni ifoda etadi. *You only get one shot at life (Hayot bir marta beriladi); One tongue is enough for a woman (Ayollar ko‘p gapirganligi uchun ularga boshqa til kerak emas);*

Bir qator frazeologik birliklarda bir soni “juda kichik raqam” ma’nosiga ega, masalan: *One man, no man – (Yolg‘iz daraxt o‘rmon bo‘lmas)*. Shuningdek, “bir inson” ma’nosida ham uchraydi: *One for all, all for one – (bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun)*<sup>16</sup>.

Bir soni idiomalar tarkibida ham uchraydi: *a body part is killing one (yomon til boshga balo); a method to one’s madness (har narsada bir hikmat bor); as busy as a one-armed paperhanger with an itch (bosh qashlashga vaqt yo‘q); as easy as one-two-three (hamirdan qil sug‘irgandek)*.

Yuqorida keltirilgan ingliz tilidagi bir soni ishtirok etgan idiomalarda, asosan, inson turmush tarzi, uning tabiati hamda kundalik hayotida duch keladigan vaziyatlar o‘z aksini topganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

O‘zbek tili frazeologik birliklari tarkibida keluvchi bir soni boshqa sonlarga qaraganda ko‘p ishlatilgan bo‘lib, quyidagi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

Birlik, hamjihat bo‘lish, birlashish ma’nolarida: *Bir yoqadan bosh chiqarmoq, Bir jon – bir tan bo‘lmoq – hamjihat, yakdil bo‘lmoq; Bir ovozdan – yakdillik bilan;*

Oila qurmoq: *Bir boshini ikkita qilmoq – uylanmoq; Bir yostiqa bosh qo‘ymoq – oilaviy hayot kechirmoq* (sinonimlari: turmush qurmoq, oila qurmoq);

Juda oz, qittak: *Bir-ikki shingil; Bir og‘iz – juda kam; Bir chimdim – qittak, ozgina; Bir-ikki og‘iz; Bir chaqalik – bir pullik; Bir shingil – juda oz;*

Ko‘zlab ish tutmoq: *Bir kesak bilan ikki qarg‘ani urmoq – Bir kesak bilan ikki quyonni urmoq.*

Sabr-qanoat va sabrsizlik: *Bir achchiqning bir chuchugi bor; Bir yomon kunning bir yaxshi kuni bor; Bir yomonning bir yaxshisi bor; Bir qoshiq oshim – G‘alvasiz boshim.*

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida “bir” soni ishtirok etgan frazeologik birliklar har ikkala til doirasida ko‘p uchraydigan birlik hisoblanib, unda, asosan, inson tabiati, uning turmush tarzi hamda madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Shuningdek, har ikkala tilda ham ijobiy va salbiy bo‘yoqdorlikni ifodalaydi hamda ekspressivlikni kuchaytiradi. Ingliz tilida “bir” soni orqali ifodalangan

---

<sup>16</sup> Idioms.thefreedictionary.com

frazeologik birliklar, asosan, idiomalarda o'z aksini topgan bo'lsa, o'zbek tilida esa ular maqollar tarkibida ko'proq uchrashiga guvoh bo'ldik.

2) Ingliz tilida ko'p uchraydigan sonlardan biri hisoblanmish ikki soni birlikning yo'qligini anglatadi: *Between two fires – ikki olov o'rtasida, umidsiz vaziyatda. Being an ass between two bundles of hay – Ikki o't orasida qoldi.*

Antitezaga asoslangan so'zlar ishtirok etgan frazeologik birliklar tarkibida ham ikki soni uchraydi: *Two blacks do not make a white – Yomonlikka yomonlik bilan javob berish yaxshilikka olib kelmaydi, masalan, boshqaning gunohi o'z gunohingni yuvib tashlamaydi; Two wrongs do not make a right – yomonlikka yomonlik bilan javob qaytarilmaydi.*

O'zbek tilida ikki soni ishtirok etgan frazeologik birliklar turlicha ma'nolar kasb etishi bilan xarakterlanadi:

Mehnatsevarlik, ishyoqmaslik: *Erinchoq ikki ishlar, Oxiri barmog'ini tishlar.*

Yaxshilik va yomonlik: *Ikki yomon qo'shilsa, Keng dunyoga sig'ishmas; Ikki yaxshi qo'shilsa, Birini biri qiymas.*

3) Ingliz tilida uch soni frazeologik birliklar tarkibida kam uchrasa ham bir qancha ramziy ma'nolarga egadir. Uch raqami to'liqlikni, uyg'unlikni hamda butunlikni ifodalaydi va ko'p hollarda ruhiy tushuncha bilan bog'liq. Quyidagi keltirilgan frazeologik birliklarda inson hayoti bilan bog'liq realliklar uch raqami bilan bog'liqligini ko'rishimiz mumkin. *Three things breed jealousy, a mighty state, a rich treasury, and a fair wife – Uch narsa hasadni keltirib chiqaradi: yuqori lavozim, boylik va chiroyli xotin; Three things drive a man out of his house – smoke, rain and a scolding wife – Uch narsa erkakni uydan quvadi: tutun/yong'in, yomg'ir/ko'z yoshi va janjalchi xotin.*

O'zbek tilida uch soni frazeologik birliklarda miqdor semasidan tashqari ikki xil, ya'ni qarama qarshi ma'noda ham qo'llaniladi. Masalan, *Uch bor yerda kuch bor* maqolida "uch" soni ahillik, birdamlilik semalarini anglatadi, *Uch kishi bilgan sirni yuz kishi bilar* frazeologik birligida esa "uch" raqami salbiy ma'no aks etadi, ya'ni bu yerda ortiqchalik, sir saqlovchining son jihatdan ortishi ya'ni ikkitadan uchtaga ortishi sirning tarqalishiga olib kelishining salbiy baholanishini namoyon etmoqda.

4) To'rt soni xalqning o'z ijtimoiy qarashlari, an'analari va kundalik turmushida ancha keng qo'llanilgan. Dunyo xalqlari mifologiyasida olamning tuzilishi, uning to'rt tomoni mavjudligi, bir oy to'rt haftadan, bir yil to'rt fasldan iboratligi, o'ning har oyda o'z tusini to'rt marta almashtirib turishi kabi holatlar ushbu sonning an'anaviylashishiga sabab bo'lgan. Islom dunyosida ham to'rt soni eng ko'p ishlatiluvchi son hisoblanib, to'rt do'st – choryor, to'rt muqaddas kitob, to'rt farishta singari birikmalarda bu raqam bilan bog'liq ifodalarni uchratish mumkin. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida ham to'rt sonini uchratishimiz mumkin hamda ular ma'lum bir ma'noda ushbu tillardagi madaniyatni aks ettiradi. Quyidagi misollarda buni guvohi bo'lishimiz mumkin: *Four eyes see more than two – bir boshdan ikki bosh yaxshi* ingliz madaniyatida ushbu frazeologik birlik hamkorlikda, hamjihatlikda bajarilgan ish bir kishiga qaraganda kamroq xatoga yo'l qo'yish mumkinligini anglatadi. Ya'ni

hamkorlikning madaniy qadriyati va jamoaviy donolik ko‘pincha individual tushunchadan ustundir degan g‘oyaga mos keladi.

O‘zbek tilida *To‘rt tomoning qibla* – iborasida qibla musulmonlar namoz paytida yuzni qaratib, o‘girib turadigan Makka shahri joylashgan tomon hisoblanib, ushbu ibora o‘zbek madaniyatida, asosan, janjallashish, tortishuv jarayonida ketaver so‘zi o‘rniga ishlatiladi.

5) Ingliz madaniyatida besh soni turli xil ramziy ma’nodarga ega, muvozanat, inson tajribasi, tabiat, bilim va to‘liqlik bilan bog‘liq. U, asosan, insonning beshta sezgi a‘zolari ko‘rish, eshitish, tegish, ta‘m va hid bilan bog‘liq. *A five finger exercise* – o‘zbek tilida *qo‘ldan keladigan ish* iborasiga ekvivalent bo‘la oladi.

Besh soni o‘zbek madaniyatida din, ijtimoiy qadriyatlar va an’anaviy e’tiqodlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ramziy ma’nodarga ega. *Besh panja teng emas; Besh qo‘l barobar emas* maqollari tenglik va tengsizlikni bildirsa, *Tilini besh qarich qilmoq – gap qaytarmoq, hurmatsizlik qilmoq* ma’nodarni ifodalaydi.

6) Dunyo xalqlari madaniyatida yetti soniga alohida e’tibor beriladi. Ularda bu son baxt, omad, yaxshilik ramzi sifatida talqin etiladi. Bu son dunyoning turli xalqlari tomonidan muqaddas hisoblangan. Shuning uchun dunyo madaniyatlarida “yetti” sonining ramziyligini o‘rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda yetti raqami bilan bog‘liq ko‘plab dunyo ajoyibotlari mavjud. Dunyoning yetti mo‘jizasi, yetti xazina, yetti hafta kuni, moddalarning yetti ko‘rinishi, yetti musiqa notasi, yetti avlod, yetti iqlim, yetti rang, yetti sayyora, yetti mukammal fan va boshqalar shular jumlasidandir.

Ingliz adabiyotida ham yetti soni muhim ahamiyatga ega. U. Shekspirning asarlarida yetti raqami alohida ahamiyatga ega, uning “As you like it” pyessasida, u insonning “yetti davri” ni belgilaydi: *Tug‘ilish davri (Infant), Maktab davri (Schoolboy), Oshiqlik davri (Lover), Askarlik davri (Soldier), Adolat davri (Justice), Qarilik davri (Pantaloan), Ikkinchi bolalalik (Second childishness and mere oblivion)*<sup>17</sup>. Quyida keltirilgan misolda inson hayotini ifodalashda uni yettita davrga bo‘linganligi, ushbu raqamining ramziy hisoblanishini ko‘rishimiz mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, taqdir va insonning ruhiy holatini aks etishida yetti sonini o‘z ichiga olgan frazeologik birliklar ramziy ma’nodarga ega.

O‘zbek folklori va udumlarida yetti soniga alohida ahamiyat beriladi. Irim-sirim va aytimlarda muqaddas hisoblangan yetti soni haqida qadimiy e’tiqodlar yetti o‘lchab, bir kes, yetimning haqi yetti daryoni quritar kabi frazeologik birliklarda, pakpakana bo‘yi bor, yetti qavat to‘ni bor kabi topishmoqlarda, Yettisuv, Yettiqashqa, Yettikechuv, Yettisoy, Yetti qiz kabi joy nomlari bilan bog‘liq rivoyatlarda, osmondagi Yetti qaroqchi yulduzlari to‘g‘risidagi xalq qarashlarida saqlanib qolgan.

Ma’lumki, xalqimiz orasida *yetti xazina* deb yuritiladigan ibora mavjud bo‘lib, ular quyidagilar: 1) Sigir – ro‘zg‘orning qassobi va baqqoli; 2) Asalari – oilaning qurti; 3) Ipak qurti – qizlarning sepi; 4) Objuvoz – qozonning yog‘i; 5) Tegirmon – qorinning belbog‘i; 6) O‘rmon – imorat suyagi, qozon olovi; 7) Tovuq (parrandachilik) – ham obiyovg‘on, ham dori-darmon.

<sup>17</sup> William Shakespeare. As you like it: A comedy. – London: printed for the theatre, 1810. – P. 72.



Keltirilgan birliklar ham milliy kod vazifasini bajaradi. Boisi, objuvoz, tegirmon tilimizga xos leksemalar va boshqa tillarga tarjima qilinganda muqobili topilmasa ekzotik leksema sifatida olinadi. Ushbu birliklar ham, o'z navbatida, yetti soni bilan bog'liqlikni ko'rsatadi. Undan tashqari, Alisher Navoiy asarlaridan ham yetti sonining etalon ekanligini bilish mumkin. Alisher Navoiy Xamsasining to'rtinchi dostoni – Sab'ai sayyor (Yetti sayyora)da yetti soni haqidagi xalq qarashlari to'la saqlanib qolgan. Xalq turmushini, an'analarini yaxshi bilgan shoir yetti soni bilan aloqador tushunchalarni diqqat bilan kuzatgan. Dunyoning yetti qismdan iboratligi, yetti xazina, yetti mo'jiza, yetti iqlim, yetti bahodir, yetti go'zal, yetti sayyora, yetti qaroqchi yulduzlari, yetti kunlik vaqt hisobi – hafta kabi qator yettiliklarning turmushda keng qo'llanilganligidan hayratga tushgan shoir o'z dostonida yettilik strukturasi amal qilgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, yetti soni sharq va g'arb olamida o'zining sehri hamda ramziy xarakterga egaligi bilan boshqa sonlardan ajralib turadi va tilda madaniyatni aks etishida ushbu sonni o'rni katta. Yuqorida ingliz va o'zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarni tahlil qilish natijasida ushbu son har ikkala tilda ham milliy-madaniy jihatdan muhim ahamiyat kasb etishi, ijobiy ma'nolarni anglatishi, inson hayoti, turmush tarzidagi muhim voqea-hodisalarni ifodalashiga guvoh bo'ldik.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ingliz va o'zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlili”** deb nomlanib, ushbu bobda son komponentli madaniy kodlarda ingliz va o'zbek xalqining madaniyati, son komponentli frazeologik birliklarda shakl va ma'no birligi hamda son komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlariga bag'ishlangan. Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa bo'lish bilan birgalikda madaniyat bilan ham uzviy bog'liqdir. O'tgan XX-asrning 90-yillarida tilshunoslik va madaniyatshunoslik orasida lingvomadaniyatshunoslik paydo bo'ldi. U tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida tan olindi. “Lingvomadaniyatshunoslik fanga lingvomadaniy birlik, lingvomadaniyat, lingvomadaniy hamjamiyat, milliy-madaniy konnotatsiya, madaniy sema, presedent birliklar, lisoniy ong, olamning lisoniy manzarasi kabi bir qator yangi tushunchalar olib kirdi. Ular qatorida madaniyat kodlari tushunchasi alohida mavqega ega”. V.N.Teliyaning fikricha, madaniyat kodlari muayyan madaniy mazmuni kodlashtirish maqsadida qo'llanuvchi turli moddiy va formal vositalardan iborat ikkilamchi belgilar tizimidir. “Madaniyat kodlari turli moddiy qobiqda – turmush realiyalari, flora va fauna vakillari va boshqalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Inson ongida ular umumiy bilimlar, tasavvurlar ko'rinishda aks etadi”<sup>18</sup>.

D.Xudoyberganova madaniyat kodini insoniyatning arxipik tasavvurlariga muvofiq keluvchi, o'zida olam haqidagi tasavvurlarni namoyon etuvchi tushunchalar va ularning lisoniy shakllari sifatida ta'riflaydi<sup>19</sup>. Ilmiy adabiyotlarda madaniyat kodlarining turlari sifatida somatik kod, makoniy kod, temporal kod,

---

<sup>18</sup> Телия В.Н. Большой фразеологический словарь русского языка. – М., 2006. – С. 12.

<sup>19</sup> Xudoyberganova D. Lingvoturkologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. – B. 46.

predmetli kod, biomorf kod, ma'naviy kod<sup>20</sup>, antroporf kod, fazoviy kod, urushga doir kod, tibbiy kod, me'moriy kod, sport kodi, geometrik kod, gastronomik kod, kiyim-kechak kodi,<sup>21</sup> mifologik kod, teomorf kod, rang-tus kodi kabilar qayd etilgan. Biz ushbu tadqiqot ishimizda lingvomadaniyatshunoslikning eng keng tarqalgan kod turlari: 1) somatik kod; 2) zoomorfik kod; 3) makon va zamon kodi; 4) oziq-ovqat kodi; 6) diniy kod; 7) mifologik kod; 9) predmet kodi; 11) ma'naviy kodlarni son komponentli frazeologik birliklarda ifoda etilganlarini tahlilga tortamiz.

#### 1. Son komponentli frazeologik birliklarda somatik kod.

Madaniyatning eng qadimiy kodlaridan biri somatik kod hisoblanadi. Somatik kod – bevosita inson tanasi a'zolari bilan bog'liq bo'lib, tananing umuman uning qismlari ularga xos bo'lgan sifatlar, miqdoriy belgilar, jismoniy belgilar, aqliy-hissiy belgilar, imo-ishoralar barchasi qamrab olinadi, bunda inson tanasi a'zolari ko'chma ma'noda qo'llaniladi. Masalan: “qo'l” so'zi, qo'li uzun, qo'li shirin, qo'li kalta; “bosh” so'zi *tog'ning boshi, boshini ikkita qilmoq, bir boshga bir o'lim* va h.k.

Somatik kodning madaniy ma'nosi somatik frazeologik birliklar orqali amalga oshiriladi. Biz quyidagi frazeologik birliklar misolida somatik kod ifodalanishini ko'rishimiz mumkin:

Ingliz tilida: *An eye for an eye, and a tooth for a tooth (teng tengi bilan tezak qopi bilan)* – ushbu frazeologik birlik inglizlar madaniyatida ham ijtimoiy jihatdan tabaqalanish borligini, ya'ni hamma o'z tengi bilan bo'lishi kerakligini anglatadi. Bu frazeologik birlikda bir sonini ifodalovchi “an” va “a” artikllari implisit ma'no, ya'ni har biri degan ma'noni anglatadi.

O'zbek tilida: *Bir boshga bir o'lim* – bosh somatizmi va bir soni ishtirok etgan ushbu frazeologik birlikda o'lim haqligi, inson peshonasiga yozilgan taqdirdan rozi bo'lishi kerakligi ifodalangan.

#### 2. Son komponentli frazeologik birliklarda zoomorf kod.

Zoomorf madaniy kodining birliklari zoomorfizmlar bo'lib, hayvonlarning nomlari metaforik tarzda qo'llaniladi. Chog'ishtirilayotgan tillardagi zoonimlar ishtirok etgan frazeologik birliklarni o'rganish ingliz va o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan urf-odatlarini, turmush tarzini atroflicha o'rganishga yordam beradi.

Masalan: Ingliz tilida: *To kill two birds with one stone (bir o'q bilan ikkita quyonni ovlash)* – ushbu iboradagi zoonim – birds (qushlar) har ikkala tilda ham bir va ikki raqami bilan birga qo'llanilgan, o'zbek tilida *Bir o'q bilan ikkita quyonni ovlash* – maqoli ekvivalent bo'la oladi. Har ikkala til madaniyatida ushbu ibora bir harakat bilan ikkita maqsadga erishish, ya'ni aql bilan ish qilib vaqtni tejash ma'nosini anglatadi.

O'zbek tilida: *Ikkita qo'chqor kallasi bir qozonda qaynamaydi* – ushbu frazeologik birlik ham zoomorf kod hisoblanib, o'zbek madaniyatiga xosligi bilan ajralib turadi, ya'ni qurbonlik, to'y xashamlarda qo'y, qo'chqor so'yiladi va

<sup>20</sup> Красных В.В. Коды и эталоны культуры (приглашение к разговору) // Язык, сознание, коммуникация: Сб. статей. – М.: МАКС Пресс, 2001. – С. 6.

<sup>21</sup> Маслова В.А. Духовный код с позиции лингвокультурологии: единица сакрального и светского // Метафизика. – М., 2016. – № 4. – С. 79.

ularning kallasi pishirib iste'mol qilinadi. Ingliz xalqi qo'y go'shtini deyarli iste'mol qilmaydi. Inglizlardan farqli o'laroq o'zbek xalqi qo'y go'shtini yaxshi ko'rishini ushbu misolda o'z aksini topgan.

3. Son komponentli frazeologik birliklarda oziq-ovqat kodi.

Oziq-ovqat kodi deganda "oziq-ovqat mahsulotlarining xususiyatlarini madaniy jihatdan aniqlangan stereotipik g'oyalar to'plami tushuniladi va ular insonning olamni anglash manbai bo'lib xizmat qiladi hamda ularning tabiiy xususiyatlaridan tashqari, madaniyat uchun funksional ahamiyatga ega ma'nolarni ham o'z ichiga oladi"<sup>22</sup>. Quyida son komponentli oziq-ovqat kodiga misol bo'la oladigan frazeologik birliklarni ko'rib chiqamiz.

Ingliz tilida: *Selling like hot hotcakes (nimanidir juda tez sotilishi)* – hotcakes inglizlar nonushtada sevib iste'mol qiladigan pankeyklar bo'lib ular ko'plik shaklda ifodalanib miqdor sonni anglatmoqda.

O'zbek tilida: *Bir magizni qirqqa bo'lmoq* – bir – son, magiz – oziq-ovqat, hamjihat bo'lmoq ma'nosini anglatib, o'zbek madaniyatida mehribonlik, saxiylik xususiyatlari borligini belgilab beradi.

4. Son komponentli frazeologik birliklarda diniy kod.

Odamzot yaratilibdiki, hayoti din bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Qaysi davr, qaysi irq bo'lishidan qat'i nazar yaratguvchisi borligini, o'zidan kuchli, uni kuzatib turuvchi zot borligiga e'tiqod qilgan. Dinga bog'liq frazeologik birliklar shakllanib, og'zaki va yozma nutqda foydalanilgan hamda hozir ham ishlatib kelinmoqda. Madaniyat va din o'rtasidagi munosabatlar muammosi ijtimoiy-tarixiy va nazariy-kognitiv xususiyatga ega bo'lib, turli olimlar, faylasuflar va dinshunoslar tomonidan faol o'rganilmoqda. Quyida biz ingliz va o'zbek tillari madaniyatlariga xos diniy kod hamda son komponentini o'z ichiga olgan frazeologik birliklarni tahlilga tortamiz.

Ingliz tilida: *Seventh heaven (yettinchi osmon)* – juda xursand bo'lmoq ma'nosini anglatib o'zbek tilida *yettinchi osmonda uchmoq* iborasi to'liq muqobil bo'la oladi. Yettinchi osmon odatda eng yuqori va ilohiy daraja bo'lib, ruhiy yutuqlarning cho'qqisini ifodalaydi. Islomda ham nasroniylarda ham ushbu son mukammallikni anglatadi. Yuqoridagi misolimiz orqali ingliz va o'zbek madaniyatida yetti sonini diniy tomondan izomorf xususiyatlari mavjud ekanligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbek tilida: *Qirq kun chilla* – bu son bilan bog'liq diniy marosimlar (vafot etgan odam uchun aza tutish, mehmon chaqirish), urf-odatlar (chaqaloq va kelin-kuyov uchun chilla saqlash) o'zbek madaniyatini ifodalaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, lingvomadaniy kodlar shu tilda so'zlashuvchi ma'lum bir millat xalqqa tegishli hisoblanadi, ya'ni har bir xalq o'zining milliy mentaliteti, urf-odatlari bo'yicha so'zlarni kodlaydi.

Tadqiqotimizning mazkur faslida biz ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklarning chog'ishtirma tahlili natijasida ularning

---

<sup>22</sup> Захаренко И.В. Молочные реки [и] кисельные берега / молочные реки с кисельными берегами // Большой фразеологический словарь русского языка. Значение. Употребление. Культурологический комментарий / отв. ред. В.Н.Телия. – М.: Аст-Пресс Книга, 2006. – С. 386.

o'xshash hamda farqli jihatlariga ko'ra quyidagi to'rtta munosabatlar guruhini aniqladik.

1. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar tarkibida bir xil son komponenti mavjud bo'lgan guruh:

*A man can only die once – Bir boshga bir o'lim*; Ushbu ingliz va o'zbek tilida keltirilgan frazeologik birlik *one* va *bir* kabi bir xil son komponentlaridan tashkil topgan. Bu ibora ma'no jihatdan ham izomorf xususiyatga ega. Unda insonlar o'limining mohiyati, hayotni jasorat va maqsad bilan yashash mumkinligi aks ettirilgan. Ushbu ibora falsafiy mulohaza yuritish uchun ishlatilishidan qat'i nazar inson hayotining oxiri muqarrarligi, ya'ni o'lim haqligi haqida eslatma bo'lib qoladi.

2. Ingliz va o'zbek tillarida ma'no jihatdan bir xil bo'lgan frazeologik birliklar turli son komponentlari bilan ifodalangan guruh:

*A cat has nine lives – Ayolning qirqta joni bor*, ushbu ingliz va o'zbek tilida keltirilgan frazeologik birlik *nine* (*to'qqiz*) hamda *qirq* son komponentlaridan tashkil topgan. Ingliz tilida "*mushukning to'qqiz hayoti bor*" iborasi ishlatilinishi mushuklar odatda jiddiy jarohat yoki o'limga olib keladigan vaziyatlardan omon qolishga qodir bo'lgan chidamli mavjudotlar ekanligini anglatadi. Bu shuni ko'rsatadiki, ko'p xavfli vaziyatlardan omon qolgan odamni tasvirlash uchun ushbu ibora ishlatiladi. O'zbek tilida esa qirq soni orqali ifodalanayotgan ushbu ibora chuqur ma'noga ega. O'zbek madaniyatida ayol kishining joni qirqta deyilishiga sabab, ayollarning sabri, ularga yuklatilgan vazifalarni uddalashi, oila hamda farzandlar tarbiyasi, hayot yo'llarida kelgan har qanday qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib o'tishini ifodalaydi. Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdiki, chog'ishtirilayotgan tillardagi frazeologik birlik ma'no jihatdan izomorf xususiyatga ega, ammo ushbu frazeologik birliklar tarkibi ikkala tilda turlicha raqamlardan tashkil topgan.


3. Ingliz tilida tarkibida son komponenti mavjud bo'lgan o'zbek tilida son komponent ishtirok etmagan frazeologik birliklar guruhi:

*A (one) bird in the hand is worth two in the bush – Uzoqdagi quyruqdan yaqindagi o'pka yaxshi* – ingliz va o'zbek tillarida bir biriga to'liq sinonim bo'lgan frazeologik birliklarning faqat ingliz tilidagisida son komponenti mavjud bo'lib har ikkala til madaniyatida ham sabr qilish, boriga qanoat qilish g'oyalari ilgari suriladi.

Yuqorida ingliz tilida tarkibida son komponenti ishtirok etgan o'zbek tilidagi muqobilida esa son komponenti ishtirok etmagan frazeologik birliklarni tahlilga tortdik. Tahlilimiz natijasi shuni ko'rsatadiki, ushbu keltirilgan misollar ma'no jihatdan har ikkala tilda bir xil milliy-madaniy xususiyatlarga ega, ammo shakl jihatdan farqli.

4. Ingliz tilida son komponenti mavjud bo'lmagan, o'zbek tilida esa ushbu komponent ishtirok etgan frazeologik birliklar:

*No sweet without sweat – Ter to'kkanga besh yong'oq, to'kmaganga puch yong'oq* – ingliz tilida berilgan ushbu frazeologik birlik tarkibida son komponenti ishtirok etmagan, o'zbek tilidagi ekvivalentida besh son komponenti ishtirok etganini korishimiz mumkin.



### 1-rasm. Ingliz va o'zbek tilidagi son komponentli frazeologik birliklarning munosabat guruhlari.

Biz ingliz va o'zbek tillarida son komponenti ishtirok etgan 65 ta frazeologik birliklarni tahlilga tortdik, tahlilimiz natijalari quyidagicha: 1) ko'p hollarda ingliz tilidagi frazeologik birliklarida one, two, three sonlari ishlatiladi; 2) ingliz tilidagi frazeologik birliklar antiteza stilistik vositasiga asoslanadi, bunda one- another, two, many, all, whole, hundred va boshqalar; 3) o'zbek tilidagi frazeologik birliklar orasida "bir", "uch" va "yetti" raqamlari faol, ingliz tilida esa uch va yetti raqamlari unchalik faol emas; 4) ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida bir raqami faol ishtirok etgan.

Milliy tilda frazeologik birliklar xalqning madaniy an'analari bilan bog'liq, tilda so'zlashuvchilarning tarixiy, kundalik-amaliy, ma'naviy qadriyatlar borasida to'plangan tajribalari asosida, voqelikni obrazli aks ettirish natijasida yuzaga kelgan. Demak, jahon madaniyatidagi sonlar bilan bog'liq asosiy ramziy raqamli manbalarni frazeologik birliklar tarkibida o'rganish har bir xalqning ma'naviy qadriyatlari asosida milliy va xalqlarning o'zaro madaniy aloqalari natijasida yuzaga kelgan baynalminal hamda universal son komponentli frazeologik birliklarni lingvomadaniy aspektda o'rganilishini taqozo etadi.

Chog'ishtirilayotgan tillardan biri hisoblangan ingliz tilidagi son komponenti ishtirok etgan frazeologik birliklar ham ma'lum ma'nolarda ingliz xalq madaniyatini aks ettiradi. Ingliz xalqi uchun sonlar har doim katta ahamiyatga ega bo'lgan, ularga murojaat qilish inson hayoti, uning tajribasi va hayotning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq deya talqin qilinadi. Ingliz tilida son komponentli quyidagi frazeologik birliklar lingvomadaniy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi:

1. *Two heads are better than one* – ushbu frazeologik birlikning ma'nosi jamoa bo'lib harakat qilishga ishora qiladi hamda bir kishidan ko'ra ko'pchilik bilan ishlash yaxshiroq natijalarga olib kelishi ifodalangan. Mazkur maqol lingvomadaniy jihatdan ingliz tilida so'zlashuvchi millatlar orasida hamkorlik va

jamoaviy ravishda muammolarni hal qilishning ahamiyatligini aks ettiradi hamda birgalikdagi sa'y-harakatlarning muhimligini ta'kidlaydi.

2. *Three's a crowd* – uchinchi shaxs ikki kishi orasidagi yaqinligini buzishi yoki orasiga sovuqchilik turishishi mumkin ekanligi haqidagi fikrni olg'a suradi. Madaniy jihatdan ahamiyatligi ortiqcha shaxslar ijtimoiy dinamikani buzishi yoki keskinlikni keltirib chiqarishi mumkinligidir.

3. *The third time's the charm* – bu frazeologik birlik muvaffaqiyat yoki omad uchinchi urinishda ko'proq sodir bo'lishini ko'rsatadi. Madaniy jihatdan esa bu qat'iyatlilikka bo'lgan ishonchni va qat'iyatlilik oxir-oqibat muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin degan fikrni aks ettiradi. Shuningdek, dastlabki muvaffaqiyatsizliklardan keyin yana urinib ko'rish bir vaqtning o'zida optimizm va umidsizlikni anglatadi.

4. *Two wrongs don't make a right* – adolat va axloqiy yaxlitlikka madaniy e'tiborni aks ettiradi. Bu qasos yoki eskalatsiyaga murojaat qilishdan ko'ra, nizolar yoki adolatsizliklarni axloqiy vositalar orqali hal qilish g'oyasini ilgari suradi.

5. *Seventh heaven* – baxt yoki xursandchilik ma'nolarini anglatib, ingliz madaniy an'analari va diniy qarashlarida yetti raqami mukammallikni hamda samoga doir mo'jizalarni ifodalaydi.

6. *Seven – year itch* – mazkur ibora turmush mobaynida, xususan, yetti yildan so'ng juftliklarning munosabatlarida bir-biridan xafagarchiligi, turmushidan mamnun emasligini bildiradi. Madaniy jihatdan ahamiyatligi uzoq yillik turmushni buzmay, oilani saqlab qolishligida namoyon bo'ladi.

Yuqorida tahlilga tortilgan ingliz tilidagi son komponentli frazeologik birliklari nafaqat hayotning turli jabhalari, balki madaniy qadriyatlar va qarashlarni ham aks ettirishga xizmat qiladi. Jamoaviylik, qarindoshlik, muvaffaqiyat, qaror qabul qilish singari bir qator mavzular ingliz tiliga xos madaniy elementni tashuvchi mavzular hisoblanishining guvohi bo'ldik.

O'zbek tilida lingvomadaniy jihatdan ahamiyatga ega son komponentli frazeologik birliklar quyidagilar:

1. *Bir yoqadan bosh chiqarmoq* – ma'lumki, yoqa erkak va ayollar kiyimining yuqori qismi hisoblanadi, majoziy xarakterga ega ushbu iborada bir kiyimdan bir necha bosh chiqarmoq emas, balki birlashib, hamjihatlikda ish tutishni nazarda tutadi.

2. *Birlikli uy – barakatli, G'ovg'ali uy – halokatli* – o'zbek xalqi uchun muqaddas hisoblangan oila tinch bo'lsa, o'sha xonadonda fayz-u baraka bo'ladi, aksincha esa tinmay urush-janjal bo'lsa oilaning barbod bo'lishiga olib keladi. Ushbu maqolga sinonim bo'la oladigan *bir kun urush bo'lgan uydin qirq kun fayz ketadi* iborasini ham ketirishimiz mumkin.

3. *Bir boshini ikkita qilmoq* – ushbu iborani boshqa tillarga so'zma-so'z tarjima qilganimizda asl ma'no kelib chiqmaydi, boisi tilimizga xos mazkur ibora oila qurmoqlikni bildiradi.

4. *Bir kishi ariq qazar, Ming kishi suv ichar* – xalqimizda hashar yo'li bilan suv yo'llarini qazish, azaliy urf-odatlardan biri bo'lib, madaniyatimizni bevosita ko'rsatishga xizmat qiladi. Qazilgan ariq yoki daryodan ko'plab insonlar foydalanadi

hamda qaziganlar haqqiga ko‘plab duolar qilanadi. Guvohi bo‘lganimizdek, ushbu maqol ham madaniy, ham diniy jihatdan ahamiyatga molikdir.

5. *Haromdan ming tanga, Haloldan bir tanga* – ham diniy, ham madaniy xarakterga ega ushbu frazeologik birlik o‘zbek xalqida halollik muhimligini ko‘rsatadi. Ya’ni harom yo‘l bilan ko‘p pul topgandan ko‘ra, haloldan oz topgan yaxshi ma’nosini anglatadi.

Guvohi bo‘lganimizdek, o‘zbek tili va madaniyatiga doir son komponentli frazeologik birliklar hayotning turli jabhalariga doir bo‘lib, ularda majoziy ma’no hukmronlik qiladi. Shuningdek, frazeologik birliklar ma’nosiga ko‘ra ijobiy va salbiy turlarga bo‘lishni o‘rinli hisobladik. Tahlilga tortilgan o‘zbek tilidagi frazeologik birliklar orasida halol, harom, omoch singari lingvokulteramalar uchradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ingliz va o‘zbek tillaridagi tahlilga tortilgan son komponentli frazeologik birliklar madaniy jihatdan alohida ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

1. Tilshunoslar tomonidan qabul qilingan fikrlarga qo‘shilgan holda, shuni ta’kidlash lozimki, frazeologik birliklar tilda ko‘p uchraydigan, fikrni teran, obrazli, chuqur ma’noli va keng qamrovda ifodalaydigan til birligi sanalib, ular ko‘plab lingvistik tadqiqotlarning o‘rganish obyekti hisoblanadi. Frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixini o‘rganish xalqning dunyoqarashi, o‘y-xayollari, yashash tarzi, urf-odatlarini, milliy qadriyatlarini chuqurroq tushunib olish imkonini beradi. Ana shu jihat tilimizning ekspressiv qatlamini tashkil etuvchi frazeologik birliklarning etimologiyasini bilishni, bu boradagi tadqiqotlarni ko‘lamini kengaytirishni va frazeologik birliklarning etimologik lug‘atini yaratishni taqozo etadi.

2. Olamning lisoniy milliy manzarasi tushunchasini muayyan tillar doirasida yoritish uchun konkret milliy tilning ta’siri ostida inson bilim darajasining olamning ichki va tashqi axboroti haqidagi tasavvurlari shakllanganligiga e’tibor qaratiladi. Olamning frazeologik manzarasi esa frazeologik vositalar yordamida tasvirlangan frazeologizmlarning har biri qat’iy tizim unsurlari bo‘lib, obyektiv dunyo borlig‘ini tasvirlashda aniq vazifa bajarishini tadqiq qilamiz.

3. Ingliz va o‘zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklardan faol foydalaniladi, ular xalqlarning ma’naviy tamoyillari va qadriyatlarini, dinini, shuningdek, madaniy va maishiy voqealarni aks ettiradi. Son komponentli frazeologik birliklar xalq donishmandligining inikosi bo‘lib adabiy tilda asarlarning rang-barangligi, uslubiy bo‘yoqdorligi va ta’sirchanligini oshirishda keng qo‘llaniladi.

4. Falsafada sonlarning paydo bo‘lishi, tabiati va vazifalari haqida turli fikrlar mavjud bo‘lib, ilmiy tadqiqotlardagi ma’lumotlariga ko‘ra, son tushunchasi uzoq o‘tmishda ba’zi predmetlarni hisoblashdan kelib chiqqan va boy tarixga ega. Qadimda, ibtidoiy jamoa a’zolari barmoqlar, toshlar va tayoqchalardan hisoblash predmetlari sifatida foydalanishgan, sonlar va hisoblash orqali inson atrof-muhitni, o‘z o‘rnini va o‘z xatti-harakatlarini anglaydi. Son yordamida reallikni tasvirlash mumkin, u turli madaniyatlarda dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi, shu sababli son tushunchasi til va tafakkurdagi eng muhim kategoriyalardan biri hisoblanadi.

5. Chog'ishtirilayotgan tillardagi frazeologik birliklar tarkibida kelgan ikki, uch, besh sonlari ma'no jihatdan bir-biriga yaqinligi aniqlandi hamda yetti soni ingliz va o'zbek tillarida muqaddas hamda mo'jizaviy son ekanligi, bu son bilan bog'liq bo'lgan ko'plab ibora, maqol, idiomalar mavjudligi va ularning har biri xalqning turmush-tarzi, e'tiqodlari, milliy-madaniy ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi va ma'no jihatdan bir biridan farq qilishi namayon bo'ldi.

6. Yetti soni sharq va g'arb olamida o'zining sehri hamda ramziy xarakterga egaligi bilan boshqa sonlardan ajralib turadi va tilda madaniyatni aks etishida ushbu sonning o'rni beqiyosdir. Ushbu raqam har ikkala tilda ham milliy-madaniy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi, ijobiy ma'nolarni anglatadi va inson hayoti, turmush tarzidagi muhim voqea-hodisalarni ifodalaydi.

7. Lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat kodlari olam lisoniy manzarasining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof qilinadi va o'zida milliy-madaniy urf-odat, qadriyat va me'yorlarni o'zida shartli ravishda aks ettiruvchi, ramziy va kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy belgilar tizimidir. Madaniyatning eng qadimiy kodlaridan biri somatik kod hisoblanadi. Somatik kod – bevosita inson tanasi a'zolari bilan bog'liq bo'lib, tananing umuman uning qismlari ularga xos bo'lgan sifatlar, miqdoriy belgilar, jismoniy belgilar, aqliy-hissiy belgilar, imo-ishoralar barchasi qamrab olinadi, bunda inson tanasi a'zolari ko'chma ma'noda qo'llaniladi.

8. Ingliz va o'zbek tillarida son komponentli frazeologik birliklar tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki: ko'p hollarda ingliz tilidagi frazeologik birliklarida one, two, three sonlari ishlatiladi; ingliz tilidagi frazeologik birliklar antiteza stilistik vositasiga asoslanadi, bunda one-another, two, many, all, whole, hundred va boshqalar; o'zbek tilidagi frazeologik birliklar orasida bir, uch va yetti raqamlari faol, ingliz tilida esa uch va yetti raqamlari unchalik faol emas; ingliz tilidagi frazeologik birliklar tarkibida bir raqami faol ishtirok etgan.

9. Ingliz va o'zbek tillaridagi son komponentli frazeologik birliklari nafaqat hayotning turli jabhalari, balki madaniy qadriyatlar va qarashlarni ham aks ettirishga xizmat qiladi. Chog'ishtirilayotgan tillardagi son komponentli frazeologik birliklar jamoaviylik, qarindoshlik, muvaffaqiyat, qaror qabul qilish singari bir qator mavzular ushbu tillarga xos madaniy elementni tashuvchi mavzular hisoblanadi. Tahlilga tortilgan o'zbek tilidagi frazeologik birliklar orasida halol, harom, omoch singari lingvokulteramalar uchradi.



**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
УЗБЕКИСТАНА ИМЕНИ МИРЗО УЛУГБЕКА**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ УЗБЕКИСТАНА**

**МАХАМАДАЛИЕВА ЗУХРА БАХРОМ КИЗИ**

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ  
ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ЧИСЛОВЫМ КОМПОНЕНТОМ  
В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2024**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за №.B2021.4.PhD/Fil2113.**

Диссертация выполнена в Национальном университете Узбекистана имени Мирзо Улугбека.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета ([www.nuu.uz](http://www.nuu.uz)) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).)

**Научный руководитель:**

**Усаров Иброхимжон Курпашевич**  
кандидат филологических наук, доцент

**Официальные оппоненты:**

**Маматов Абди Эшонкулович**  
доктор филологических наук, профессор

**Саидакбарова Саодат Пархаджановна**  
доктора философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Ведущая организация:**

**Ташкентский государственный университет  
узбекского языка и литературы**

Защита диссертации состоится «25» октября 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.01.10 по присуждению ученых степеней при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университет, дом 4. Тел. (+99871) 246–02–24; (+99871) Факс: (+99871) 246–02–24; e-mail: nauka@nuu.uz. (Национальный университет Узбекистана, 7-этаж, 78-кабинет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрировано за № \_\_\_\_). Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университет, д. 4. Тел. (+99871) 246–08–62.

Автореферат диссертации разослан « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года.

(Реестр протокола рассылки № \_\_\_\_ от « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2024 года).

**И.А.Сиддикова**

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

**Ш.О.Назирова**

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат филологических наук, доцент

**С.Э.Камилова**

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистике важное значение имеет грамматическое и стилистическое обоснование лексико-семантических единиц понятия числа, а также раскрытие его лингвокультурологических особенностей. Исследование чисел с точки зрения отражения ими этнокультурных, психических особенностей всегда было в центре внимания не только лингвистов, но и психологов, этнографов, культурологов, историков, математиков и философов. Наличие в языке слов со значением числа, подобных именам числительным, служит причиной особого изучения этого явления в лингвистике, а исследование, систематизация фразеологизмов с числовым компонентом помогает сделать речь ещё более конкретной и выразительной.

Роль языка в развитии культуры, его значение в социализации общества, своеобразие в определении течения реальных процессов в психическом сознании человека как современного объекта исследования мировой лингвистики, а также востребованность антропоцентрического подхода к изучению языка наряду с исследованием его как системы, изучение особенностей и решение проблем отражения в языке конкретной нации запечатленных в сознании людей данного общества проявлений свойственных им культурных признаков, являются прерогативой таких направлений языкознания, как когнитивная лингвистика и лингвокультурология. Причина этого заключается в том, что язык считается ключом к системе человеческого мышления и к природе психики и служит для демонстрации особенностей нации. Сложной отраслью фразеологии является перевод фразеологических единиц, а научные исследования в области этих явлений требуют большого опыта.

В ходе проводимых сегодня в нашей стране реформ, когда одним из приоритетных направлений политики стало усиление внимания к обучению и овладению иностранными языками, научное обоснование сравнительного изучения различных языков, выявление сходных и несходных особенностей разносистемных языков считаются одной из актуальных задач современной лингвистики. Определены такие задачи, как «создание условий, необходимых для популяризации изучения и совершенствования владения иностранными языками среди населения, координация внедрения на всех этапах образования международно признанных программ и учебников иностранных языков».

Данное исследование в определённой степени служит для реализации задач, определённых в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших учебных заведениях и обеспечению их активного участия в проводимых в стране масштабных реформах», в Указе Президента Республики Узбекистан от 8 октября

2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Постановлении Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года № ПП-300 «О мерах по качественной и своевременной реализации стратегии Узбекистан-2030» в 2023 году<sup>1</sup> а также в ряде других нормативно-правовых актов, относящихся к данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Пути формирования системы инновационных идей и их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информатизированного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В последние годы лингвокультурологический подход к исследованию языковых единиц нашёл своё отражение в ряде исследований таких зарубежных лингвистов, как Н.Ф.Алефиренко, Н.Д.Арутюнова, А.П.Бабушкин, Н.Н.Болдырев, А.Вежбицкая, С.Г.Воркачев, В.В.Воробьев, В.И.Карасик, О.А.Корнилов, Е.С.Кубрякова, В.А.Маслова, С.Г. Тер-Минасова<sup>2</sup>.

Среди узбекских ученых вопросы взаимосвязи языка и культуры изучались такими лингвистами, как Д.У.Ашурова, У.К.Юсупов, Т.А.Бушуй, Ш.С.Сафаров, А.Е.Маматов, М.Р.Галиева, Н.М.Махмудов, Д.С.Худайбергана<sup>3</sup>. Возрастает потребность в сопоставительном изучении национальных и специфических аспектов фразеологизмов, считающихся

---

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/3546742/> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёевнинг 2018 йил 2 февралдаги ПФ-5325-сон “Хотин-қизларни қўллаб-қувватлаш ва оила институтини мустаҳкамлаш соҳасидаги фаолиятни тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони.

<sup>2</sup> Алефиренко Н.Ф. Протовербальное порождение культурных концептов и их фразеологическая репрезентация // Филол. науки, 2002. № 5. – С. 72-81.; Вежбицкая А. Язык, культура и познание. – М.: Русские словари, 1996. – С. 416.; Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. 2-е изд., испр. – М.: Языки русской культуры, 1999. I-XV. – С. 896.; Вежбицкая А. Язык, культура и познание. – М.: Русские словари, 1996. – С. 416.; Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001.1 – №1. – С. 64-72.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: теория и методы. – М., 1997. – С. 32.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепты, дискурс. 2-е изд. – М.: Гнозис, 2004. – С. 390.; Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов. 2-е изд., испр. и доп. – М.: ЧеРо, 2003. – С. 394.; Кубрякова Е.С. В поисках сущности языка: Когнитивные исследования. Ин-т. языкознания РАН. - М.: Знак, 2012. – С. 208.; Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб.пособие для студ. высш. учеб. заведений. – 2-е изд., стереотип. – М.: Издательский центр “Академия», 2004. – С.208.; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. Учеб.пособие. – М.: Слово, 2000. – С. 271.

<sup>3</sup> Ашурова Д.У. Перспективы научных исследований в свете новых направлений лингвистики // Филология масалалари. – Тошкент, 2004. – №4. – Б. 37-40.; Бушуй Т.А. Проблема языка и нации в лингвокультурологическом аспекте // International scientific review, 2019 № LVI.; Галиева М.Р. Религиозное сознание в языковой картине мира // Вестник Московского государственного лингвистического университета. Гуманитарные науки. – М., № 5.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов тавллудининг 70 йиллигига бағишланган илмий-амалий анжумани материаллари). – Андижон, 2012. – Б.78.; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. – № 5 Б. 10.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд: Сангзор, 2006. – Б. 92.

большой группой лингвокультурных языковых единиц, на стыке двух и более разносистемных языков.

В освещении лингвокультурных особенностей фразеологизмов большое значение имеют исследования таких учёных, как Н.Ф.Алефиренко, А.Вежбицкая, А.М.Бушуй, В.А.Маслова, Н.Н.Амасова, А.В.Кунин, В.Н.Телия,<sup>4</sup> а также работы таких узбекских ученых, как Ш.Рахматуллаев, А.Э.Маматов, М.И.Умарходжаев, Ш.С.Имяминова, Г.С.Курбонова, Н.Б.Отакулов,<sup>5</sup> и исследования таких английских ученых, как А.Р.Коуви, М.Омазиу, К.Стейер, С.Ханстона<sup>6</sup>.

